



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2026
1-сон



SERVIS

ILMIY-AMALIY JURNAL 2026 yil, 1-soni

Muassis: Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan 2008 yil 31 dekabrda
0561-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

O‘zR OAK Riyosatining 19.03.2017 y., 239/5-sonli qarori bilan e‘tirof etilgan

Tahririyat a‘zolari:

Mas‘ul kotib:

i.f.d., prof. M.Q.Pardaev

Muharrirlar:

i.f.d., dotsent F.A.Safarov
PhD, dotsent I.M.Pardaeva
PhD, I.Sh.Ernazarova

Texnik muharrir:

katta o‘qituvchi F.O.O‘roqov

Korrektor:

PhD, dotsent v.b.
T.I.Yahyoyev

Sahifalovchi:

PhD, dotsent v.b.
H.N.Ochilova

1 yilda 4 marotaba
chop etiladi.

**O‘zbekiston hududida
tarqatiladi.**

Tahririyat manzili:

140100, Samarqand shahar,
Amir Temur ko‘chasi, 9-uy,

tel.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

faks: +998(366)231-12-53
el.pochta:

samisiservis@mail.ru

Tahrir hay‘ati raisi:

M.E.Po‘latov – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori,
i.f.d., professor

Tahrir hay‘ati raisi o‘rinbosari:

M.Q.Pardayev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

Tahrir hay‘ati a‘zolari:

M.M.Muxammedov – SamISI professori, iqtisod fanlari
doktori

D.R.Zaynalov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

O.M.Murtazayev – TDIUSF direktori, iqtisod fanlari doktori,
professor

M.R.Boltabayev – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

R.X.Ergashev – QarMII professori, iqtisod fanlari doktori

B.K.G‘oibnazarov – iqtisod fanlari doktori, professor

I.S.To‘xliyev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

K.B.Urazov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

Q.J.Mirzayev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

B.I.Isroilov – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

G.M.Shodiyeva – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

S.N.Toshnazarov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

R.N.Normaxmatov – SamISI professori, texnika fanlari doktori

A.Bektemirov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

O.M.Pardayev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

M.T.Alimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

Z.Dj.Adilova – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

Sh.O.Quvondiqov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

L.N.Xalikova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

F.A.Safarov – SamISI dotsenti, iqtisod fanlari doktori

A.M.Karimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

I.B.Mattiyev – SamISI professori, pedagogika fanlari doktori

B.F.Boronov – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

A.N.Xoliqulov – SamISI professori, iqtisod fanlari nomzodi

X.A.Raximov – SamISI dotsenti, PhD

S.A.Babanazarova – SamISI dotsenti, PhD

H.N.Ochilova – SamISI dotsenti v.b., PhD

I.R.Berdikulova – SamISI dotsenti v.b., PhD

A.Q.G‘apparov – SamISI dotsenti v.b., PhD

Farrux Shadiyorovich Shanazarov Ijtimoiy xizmatlarning inson kapitaliga ta’siri va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi funksiyalari	80
Mo‘minjon Shavqiddin o‘g‘li Muxiddinov Erkin iqtisodiy zonalarda logistika xizmatlarini rivojlantirish bo‘yicha xorij tajribasidan foydalanish	83
Behzod Berkinbayevich Qarshiyev O‘zbekistonda pullik tibbiy xizmatlar rivojlanishi	89
Akmal Ahtamovich Nizamov Yangi integratsiyalashgan tarmoqli-analitik model asosida logistik xizmatlarini optimallashtirish	95
TURIZM VA MEHMONXONA XO‘JALIGI	
Шухрат Хасанович Саттаров Современные тенденции и перспективы развития туризма в условиях цифровой экономики	100
Дилафруз Каршиевна Усманова Особенности применения форсайт-технологий в повышении конкурентоспособности национального туризма	104
Diyora Istamovna Ochilova, Rayhona Sadriddinovna Amriddinova Turistik xizmatlar nomoddiyligi va iste’molchi tajribasi: sifat hamda qiymatga asoslangan baholash	110
Оқила Сатимбаева Элликқалға туманида туризмнинг ривожлантириш имкониятлари	114
Nilufar Xabibjonovna Xolboyeva, Rayhona Sadriddinovna Amriddinova Mijozni ushlab qolish va yangi mijoz jalb qilishda sodiqlik dasturining o‘rni (Hilton Worldwide misolida)	118
Shohista Bobobekovna Toyirova Tog‘li hududlarda ekologik turizmni rivojlantirishda jahon tajribalari	123
MENEJMENT VA MARKETING	
Muhitdin Aynakulov Sayyohlar temperamentiga asoslangan sayyohlik infratuzilmasini tabaqalashtirilgan holda rejalashtirish modeli	128
Diyor Haqberdiyevich Xolmamatov Ulgurji savdoda marketing logistikasi strategiyasidan foydalanish	130
Xilola Nematovna Ochilova Ijtimoiy tarmoqlarda raqamli biznesni boshqarishning mohiyati va ahamiyati	135
Камилла Бахромовна Суюнова Обеспечение маркетинговой прозрачности бизнеса через цифровой аудит на онлайн-рынках	139
Sanjarbek Komiljon o‘g‘li Boyjigitov Iste’molchi xulq-atvorini tahlil qilishda Engel-Kollat-Blackwell modelidan foydalanish imkoniyatlari	142
Ашур Али Рустам угли Латипов, Паризода Раджаб кизи Алибекова Развитие сравнительного менеджмента за рубежом: кризис универсальной модели и вызов азиатских практик	146
Sadulla Shodiyevich Urazov Liderlikka xulq-atvor yondashuvining nazariy konsepsiyalari va boshqaruv tizimidagi o‘rni	150

Shohista Bobobekovna Toyirova – “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti
assistent o‘qituvchisi

TOG‘LI HUDUDLARDA EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA JAHON TAJRIBALARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada tog‘li hududlarda ekologik turizmni rivojlantirishning jahon tajribasi tizimli tahlil qilingan. Tadqiqotda ekologik turizmning barqaror rivojlanish, tabiiy resurslarni muhofaza qilish hamda mahalliy aholi farovonligini oshirishdagi o‘rni ochib berilgan. Dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida tog‘li hududlarda ekoturizmni tashkil etishning samarali modellari, boshqaruv mexanizmlari, moliyalashtirish manbalari va jamoatchilik ishtirokiga asoslangan yondashuvlar o‘rganilgan. Shuningdek, ekologik turizmni rivojlantirish jarayonida yuzaga keladigan ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy muammolar hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha ilg‘or amaliyotlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: tog‘li hududlar, ekologik turizm, ekologik monitoring, barqaror rivojlanish, ekologik infratuzilma.

Kirish. Turizm sohasi dunyo mamlakatlariga o‘zining salbiy, shu bilan birga, ijobiy ta‘sirini ham ko‘rsatishi mumkin. Soha vakillari esa turizmning ijobiy ta‘siri ko‘proq bo‘lishi uchun harakat qilishmoqda. Birlashgan Millatlar Jahon Sayyohlik tashkiloti rasmiy ma‘lumotiga ko‘ra, barqaror turizm mehmonxonalar, tur operatorlar, havo yo‘llari zimmasiga bir qator boshqaruv tamoyillarini yuklaydi. Bugungi kunda dunyo bo‘ylab sayyohlar orasida tez ommalashayotgan turizm yo‘nalishi bo‘lgan ekologik turizm tabiatni asrab-avaylashga, shu bilan birga mahalliy aholiga moddiy tomonlama foyda olib kelishiga yordam beradi. Ma‘lumotlar hozirgi yosh sayyohlar tabiat va madaniyatga oid turizm yo‘nalishlariga katta qiziqish bildirishayotganligini ko‘rsatmoqda. Aholi daromadi kam bo‘lgan tog‘li hududlarda bu yo‘nalishning tashkil etilishi aholi manfaatlarini va hudud ekotizimini himoya qilishga olib keladi. Turistlarning talab va ehtiyojlari ham ushbu turizm faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlarga o‘z ta‘sirini o‘tkazmoqda. Bu esa global tengsizlik va atrof-muhit ifloslanishiga qarshi kurashda bebaho tabiiy boyliklarni kelajak avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Barqaror turizm ushbu vazifaning amaliy ko‘rinishi bo‘lib, ekologik turizm uning asosiy tamoyillardan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ekologik turizmning xususiyatlari, tabiati va rivojlanish tendensiyasi turizmning iqtisodiyot, siyosat, madaniyat va tabiatga ta‘siri P.Eagles, P.Nilson, J.Higham, F.Buffa, J. McLaughlin, D.Weaver va J.Corria, O. Zaxarova S.Ajayev, V. Xrabovchenko, V. Drozdov, S. Shimova¹ kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida o‘z aksini topgan. Jahon ekologik turizmi sohasida kechayotgan jarayonlar haqidagi ma‘lumotlar BMT, JST va Turizmni qo‘mitasi nashrlarida keltirilgan. Ekologik turizmning rivojlanish holati va rivojlanish tendensiyalari davlat statistika qo‘mitasining yillik hisobotlarida e‘lon qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada induksiya va deduksiya, kuzatish, statistik tahlil va sintez kabi tadqiqot metodologiyalaridan foydalanilgan. Maqolaning uslubiy usuli sifatida olimlarning ilmiy ishlaridan va statistik ma‘lumotlardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda dunyoning ko‘plab tog‘li hududlarida yashovchi aholi atrof-muhitga yetkaziladigan zararlarning oldini olish hamda barqaror rivojlanishni ta‘minlash maqsadida ekologik turizmga ustuvor yo‘nalish sifatida e‘tibor qaratmoqda. Ekologik turizm tog‘li hududlarda istiqomat qiluvchi aholining o‘ziga xos turmush tarzi, madaniyati va tabiiy resurslarni, xususan, yovvoyi tabiatni asrab-avaylashda muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, aynan tog‘ va tog‘oldi hududlarida ekoturizmni tashkil etish va rivojlanishga oid manbalar yetarli emasligi kuzatilmoqda. Bu holat, avvalo, ushbu hududlarda ilmiy tadqiqotlarning yetarli darajada olib borilmayotganligi bilan izohlanadi. Ammo, rivojlangan

¹ Eagles P, Nilson P. Ecotourism bibliography. An annotated bibliography for researchers, planners and managers. Fifth edition. The international ecotourism society, 2001. - P .41 ; Higham J. Ecotourism: competing and conflicting schools of thought.

mamlakatlar tajribasida bu yo‘nalishda ancha samarali natijalarga erishilganini ta’kidlash joiz. Jumladan, Shimoliy Amerika mamlakatlari misolida bu holat yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Ushbu mamlakatlarda tog‘ga chiqishni afzal ko‘ruvchi sayyohlar, piyoda sayr qiluvchi hamda yovvoyi tabiatni kuzatuvchi turistlar soni yuqori darajaga yetgan. Amerika rekreatsiya va atrof-muhit milliy so‘rovnomalari natijalari qushlarni tomosha qiluvchilarning, tog‘da piyoda kezuvchilarning va tog‘li hududda velosiped haydovchilarning sonining keskin oshganligini ko‘rsatgan¹. Kanada mamlakatida ham tog‘li hududlardan turizm sohasida samarali foydalanilmoqda. Xususan, Jasper, Banff va Kanada qoyalari milliy bog‘lari o‘zining bebaho ekoturistik marshrutlari bilan mashhur. Rivojlangan mamlakatlarda tog‘li hududlarda ekoturizmni tashkil etishda boshqaruv xarajatlarini kamaytirish hamda samaradorlikni oshirish maqsadida tashkilotlar o‘rtasidagi hamkorlikka alohida e‘tibor qaratilgan. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa aholi sonining oshib borishi, tog‘li hududlarga yetib borishdagi muammolar va nazorat qilishdagi sustkashliklar sohaning samarasiz tashkil etilishiga olib keluvchi omillardan hisoblanadi².

Turizm sohasining barqaror rivojlanishi davlatning qo‘llab-quvvatlashiga ko‘p jihatdan bog‘liq. Ekologik turizmni tashkil etish, uni rejalashtirish va boshqarishda davlat asosiy vazifani bajaradi. Ushbu vazifani boshqarishda davlat va xususiy sheriklikdagi faoliyati marketing, ta‘lim va ma‘lumotlar bazasini yaratishda ko‘rinadi. Bu jihat dunyoning ekoturizm bo‘yicha yetakchi Kosta-Rika davlati misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Davlat iqtisodiy asosni shakllantiradi, valyuta kurslari, investorlarning ishonchini ta‘minlash hamda foiz stavkalari kabi iqtisodiy omillar ham ekologik turizmni samarali tashkil etish va rivojlantirishda ahamiyatga ega. Davlat turizm uchun zarur bo‘lgan infratuzilmani va ta‘lim bilan bog‘liq bo‘lgan jihatlarni o‘z zimmasiga oladi, sohada tijorat faoliyatini rag‘batlantiradi. Qolaversa, moliyalashtirish maqsadida maxsus kredit dasturlarini taqdim etadi. Muhofaza qilinadigan joylarning turli fondlar bilan rag‘batlantirib turishi hudud tabiati va u yerda istiqomat qiluvchi insonlar uchun foydali hisoblanadi.

Institutsion faktorlar murakkab tuzilishga ega bo‘lib, fondlarning haqiqiy taqsimoti siyosiy omillar ta‘siri ostida bo‘lishi mumkin. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, muhofaza qilinayotgan hududlar iqtisodiy daromad rejasi past bo‘lgan holatda ham hudud uchun foydali bo‘ladi. Hatto tashrif buyuruvchilardan to‘lov undirilmagan, yoki hudud zarar bilan faoliyat yuritayotgan sharoitlarda ham, bu kabi hududlarning mavjudligi va faoliyati mahalliy aholiga bevosita yoki bilvosita ijobiy iqtisodiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Turistlar tashrifi tufayli mahalliy ish o‘rinlari oshadi, hududda va hudud atrofida sohaga oid turli ko‘rinishdagi tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar soni ortadi. Soha faoliyatining mahalliy aholiga moddiy daromad keltirishi, eng avvalo, ular bilan yo‘lga qo‘yilgan o‘zaro hamkorlik darajasiga bog‘liq. Ekologik faoliyat faqatgina tomonlar manfaatlari muvofiqlashgan holatda samarali bo‘lishi mumkin. So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, mahalliy aholining ekologik turizm faoliyatida ishtirok etishi ularning iqtisodiy farovonligiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Ekologik turizm faoliyati olis hududlarda tabiiy resurslar asosida taklif etiladigan va e‘tiborni tortuvchi manzillarda turli daromad manbai hisoblanadi. Misol tariqasida Nepal, Kenya va Malayziya kabi davlatlarni keltirishimiz mumkin. Mintaqa aholisining ekoturizm faoliyatini yuritishda erishayotgan yutuqlarini namoyish qila olgan taqdirda faoliyat turlarini kengaytirishga qaratilgan loyihalar agentliklar tomonidan moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlangan. Diqqat qaratish kerak bo‘lgan jihati shundaki, hatto qo‘llab-quvvatlovchi agentliklar ishtirokisiz ham ekologik turizm faoliyati har qanday holatda ham foydali bo‘lishi mumkin. Ekologik turizm tufayli hududdagi ishsizlik darajasi kamayadi, vaqt o‘tishi bilan hudud moddiy daromadga erishadi. Ekologik turizm faoliyatiga qaratilgan loyihalar hududning har bir fuqarosi uchun daromad keltirishi mumkin. Bu o‘z navbatida xalqning turmush tarzining

¹ Amerika milliy rekreatsiya va bog‘lar assotsiyatsiyaning 2024-yilgi hisoboti.

² Nepal S. Mountain ecotourism and sustainable development. Mountain Research and development. Vol.22(2). 2022. -p104-109.

yaxshilanishiga sabab bo‘ladi¹. Faoliyat turlarining kengayishi bilan daromad darajasi ham ko‘payadi.

Kosta-Rika							
Nepal							
Ekvador							
Butan							
Avstraliya							
Keniya							
Yangi Zelandiya							
Malayziya							
Botsvana							
Shveysariya							
	Davlatning qo‘llab-quvvatlashi	Mahalliy aholining ishtiroki	Sig‘im imko-niyatlari	Daromad taqsimoti	Eko-sertifikat-lashtirish	Yuqori narxlar	Ta‘lim va ilmiy izlanishlar

Davlatlarning tog‘li hududlarda ekoturizmni rivojlantirishga yo‘naltirilgan omillari

Olimlar tomonidan 2018-yilda Keniya davlatida olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, savol-javoblar asosida aniqlanishicha, bu hududda istiqomat qiluvchi aholining 64 foizi ekologik turizm bilan shug‘ullanishi natijasida ularning daromadlari sezilarli darajada oshganligini ta‘kidlashgan. Ayniqsa, aholining kambag‘al qatlami uchun bunday faoliyat kambag‘allikdan chiqishda katta ahamiyatga ega. Ekoturizmning hayvonot va nabodot olamiga ijobiy ta‘siri ayniqsa katta. Misol tariqasida oladigan bo‘lsak, Afrika fillarining tish suyagi qora bozorda 1500 AQSh dollari atrofida baholanadi va bu esa ularni ovlashga bo‘lgan ishtiyoqni oshiradi. Aslini olganda, fillar tirik holda undan ham katta qiymatga ega. Fillar bilan rasmga tushish, turli qimmatbaho safari lagerlarida transport vositasi sifatida foydalanish va yana bir qator vazifalar tufayli umri davomida fil beqiyos foyda keltirishi mumkin. Bunday hayvonlar sirasiga arslon va karkidonlarni ham kiritish mumkin². Ekoturizm talablaridan hisoblangan qo‘riqxonalar, milliy bog‘lar tufayli o‘rmonlarning yo‘qolib ketish va suvning ifloslanishi cheklanadi. Ekologik turizm tufayli hududning uzoq muddat davomida moddiy foyda olishi kafolatlanadi.

Turistlar, odatda, muhofaza qilinadigan hududlarga tashrif buyurganda shovqindan holi bo‘lgan, odamlar kam yashaydigan hududlarni tasavvur qilishadi³. Tabiatni asrashga qaratilgan va mahalliy aholi manfaatlariga xizmat qiluvchi loyihalarga yetarli mablag‘ ajratishga tayyor insonlar sonining ko‘pligi jamiyat hamda tabiatning yorqin kelajagini belgilab beradi. Tadqiqotning natijalariga ko‘ra, ko‘plab ekoturistlar tabiatni asrashga qaratilgan harakatlarga o‘z hissalarini qo‘shish maqsadida o‘zlari istiqomat qiluvchi hududlarda hambunday amaliyotlarni ommalashtirishga harakat qilganliklari aniqlangan. 270,1 maydonga ega bo‘lgan Puerto el-Morro-Ekuador Janubiy Amerikadagi milliy muhofaza qilinadigan hududlardan biri hisoblanadi. Ushbu hududda o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, mahalliy aholining asosiy daromad manbai baliqchilik va qisqichbaqasimonlarni ovlash faoliyatidan iborat. Hududning dengiz qirg‘og‘ida joylashgani tufayli bu yerda noyob qushlar va dengiz jonivorlari yashaydi. Turistlar uchun bunday turdagi turistik mahsulotlarning taklif etilishi, shubhasiz, ushbu yo‘nalishga bo‘lgan qiziqishning ortishiga olib keladi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, har bir turist o‘rtacha 6,50

¹ Chebus P. The effect of ecotourism initiatives on the livelihood of local community around Kit Mikayi Site in Kisumu County, Kenya. International Journals of Sciences and High Technologies. 2018.

² The environmental Tourist (National Audubon Society Special). 2018.

³ Christiansen S. Economic Contribution of Ecotourism, Motivations and Satisfaction: the Case of Puerto El-Morro (Ecuador). European Journal of Social Sciences. Vol.2(2). 2019.-p92.

AQSh dollari miqdorida xayriya mablag‘i ajratgan bo‘lib, bu o‘z navbatida mintaqa tabiat muhofazasiga hamda mahalliy aholining oylik daromadiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatgan. Vashingtonda joylashgan Barqaror turizm markazining yillik hisobotlariga ko‘ra, olib borilgan tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, sayyohlar orasida ommalashayotgan turizmning ushbu yo‘nalishi tabiatni asrab-avaylashga, shu bilan birga mahalliy aholiga moddiy tomonlama foyda olib kelishiga yordam beradi. Ma‘lumotlar hozirgi yosh sayyohlar tabiat va madaniyatga oid turizm yo‘nalishlariga katta qiziqish bildirishayotganligini ko‘rsatmoqda. Shu sabab ularning talab va ehtiyojlari ham ushbu turizm faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlarga o‘z ta‘sirini o‘tkazmoqda. Bu esa global tengsizlik va atrof-muhit ifloslanishiga qarshi kurashda bebaho tabiiy boyliklarni kelajak avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Barqaror turizm ushbu vazifaning amaliy ko‘rinishi bo‘lib, ekologik turizm uning asosiy tamoyillardan biri hisoblanadi.

Soha vakillari turizmning ijobiy ta‘siri ko‘proq bo‘lishi uchun harakat qilishmoqda¹. Birlashgan Millatlar Jahon Sayyohlik tashkiloti rasmiy ma‘lumotiga ko‘ra, barqaror turizm mehmonxonalar, tur operatorlar, havo yo‘llari zimmasiga bir qator boshqaruv tamoyillarini yuklaydi. Dunyoning eng yirik sayohat uchun mehmonxona bron qilish sayti bo‘lgan booking.comning ma‘lumotlariga ko‘ra, 2024-yilga oid tadqiqotda qatnashgan 10000 nafar sayyohning atigi 42 foizi sayohat davomida atrof-muhitga zarar yetkazmaslik haqida qayg‘urishini bildirgan. Ulardan 65 foizi esa ekologik toza turar joyda qolganliklarini ta‘kidlagan. Yana bir olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, 5700 atrofida mehmonxonadan atigi 25 foizi o‘z hududida barqaror turizm bo‘yicha faoliyat olib borayotganligini ma‘lum qilgan. So‘nggi vaqtlarda dengiz bo‘ylab sayohatlar sezilarli darajada faollashdi. Tabiatni muhofaza qilish tarafdorlari esa kruiz yo‘nalishlari suv osti dunyosiga katta zarar yetkazilayotgani haqidagi xavotirlarini bildirishgan. Shuning uchun ular hozirda sabab endilikda ular ham tabiatga chiqarilayotgan oltingugurt dioksidini to‘liq kamaytirishga qaratilgan tozalovchi qurilmalardan foydalanmoqda.

Xulosa va takliflar : O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tog‘li hududlarda ekologik turizmni rivojlantirish barqaror rivojlanishning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u tabiiy resurslarni muhofaza qilish, mahalliy aholining ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini oshirish hamda hududlarning uzoq muddatli rivojlanishini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon tajribasi tahlili shuni ko‘rsatdiki, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda ekoturizmni samarali tashkil etish, avvalo, davlat siyosati, institutsional mexanizmlar, mahalliy aholi ishtiroki va ekologik muvozanatni ta‘minlash bilan chambarchas bog‘liqdir. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, tog‘li hududlarda ekoturizmni rivojlantirishda asosiy muammolar qatoriga ilmiy tadqiqotlarning yetishmasligi, ekologik sig‘im me‘yorlarining aniqlanmaganligi, nazorat mexanizmlarining sustligi hamda mahalliy aholining bilim va ko‘nikmalarining cheklanganligi kiradi. Shu sababli ushbu sohani rivojlantirish kompleks va tizimli yondashuvni talab etadi. Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

*tog‘ va tog‘oldi hududlarida ekologik turizmni rivojlantirishda jahon tajribasidan moslashtirilgan holda foydalanish, hududning tabiiy, ijtimoiy va iqtisodiy imkoniyatlarini chuqur tahlil qilish asosida milliy va hududiy ekoturizm modellarini ishlab chiqish zarur;

*mahalliy aholini ekologik turizm faoliyatiga keng jalb etish maqsadida gidlik xizmatlari, mehmon uylari boshqaruvi, milliy hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish, raqamli marketing kabi yo‘nalishlarda malaka oshirish va trening dasturlarini joriy etish lozim. Bu turizm daromadlarining hududda qolishini ta‘minlab, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi;

*har bir tog‘li hudud uchun ekologik sig‘im ko‘rsatkichlarini ilmiy asosda belgilash va unga muvofiq ravishda ruxsat etilgan turistlar oqimini tartibga solish zarur. Bu tabiat resurslarining degradatsiyasini oldini olish va uzoq muddatli ekologik muvozanatni saqlashga xizmat qiladi;

*chiqindilarni boshqarish, suv va havo sifatini nazorat qilish, biologik xilma-xillikni saqlashga qaratilgan ekologik monitoring tizimini kuchaytirish hamda ekoturizm obyektlarida eko-sertifikatlashtirish amaliyotini keng joriy etish maqsadga muvofiq;

¹ Vora Sh. Where Sustainable Travel is headed in 2017?. 2017.

*davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirish, maxsus moliyaviy mexanizmlar, grantlar va imtiyozli kreditlar orqali ekoturizm loyihalarini qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, ilmiy-tadqiqot va ta’lim muassasalari bilan hamkorlikni kengaytirish zarur.

Umuman olganda, tog‘li hududlarda ekologik turizmni rivojlantirish nafaqat iqtisodiy foyda manbai, balki tabiiy merosni asrab-avaylash, mahalliy aholi turmush darajasini yaxshilash va barqaror rivojlanishga erishishning samarali vositasi hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishda ilmiy asoslangan va muvofiqlashtirilgan siyosat olib borilishi kelajak avlodlar uchun bebaho tabiiy boyliklarni saqlab qolishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Eagles P, Nilson P. Ecotourism bibliography. An annotated bibliography for researchers, planners and managers. Fifth edition. The international ecotourism society, 2001.- P .41 ; Higham J. Ecotourism: competing and conflicting schools of thought. Critical issues in ecotourism : understanding a complex tourism phenomenon. Chapter1, 2007.
2. Amerika milliy rekreatsiya va bog‘lar assotsiyatsiyaning 2024-yilgi hisoboti.
3. Nepal S. Mountain ecotourism and sustainable development. Mountain Research and development. Vol.22(2). 2022.-p104-109
4. Chebus P. The effect of ecotourism initiatives on the livelihood of local community around Kit Mikayi Site in Kisumu County, Kenya. International Journals of Sciences and High Technologies. 2018.
5. The environmental Tourist (National Audubon Society Special). 2018
6. Christiansen S. Economic Contribution of Ecotourism, Motivations and Satisfactions: the Case of Puerto El-Morro (Ecuador). European Journal of Social Sciences. Vol.2(2). 2019.- p92.
7. Vora Sh. Where Sustainable Travel is headed in 2017?. 2017.

<p>Ш.Тойирова Мировой опыт развития экологического туризма в горных регионах Аннотация. В данной статье систематически анализируется мировой опыт развития экотуризма в горных районах. Исследование выявляет роль экотуризма в устойчивом развитии, защите природных ресурсов и улучшении благосостояния местного населения. Изучаются эффективные модели организации экотуризма в горных районах развитых и развивающихся стран мира, механизмы управления, источники финансирования и подходы, основанные на участии общественности. Также анализируются экологические, социальные и экономические проблемы, возникающие в процессе развития экотуризма, и лучшие практики их устранения. Ключевые слова: горные регионы, экологический туризм, экологический мониторинг, устойчивое развитие, экологическая инфраструктура.</p>	<p>Sh.Toyirova Global experience in developing ecotourism in mountainous regions Abstract. This article systematically analyzes the world experience in developing ecotourism in mountainous areas. The study reveals the role of ecotourism in sustainable development, protection of natural resources, and improvement of the well-being of local populations. Effective models of organizing ecotourism in mountainous areas in developed and developing countries of the world, management mechanisms, sources of financing, and approaches based on public participation are studied. Also, the environmental, social, and economic problems that arise in the process of developing ecotourism and best practices for their elimination are analyzed. Keywords: mountainous regions, ecological tourism, ecological monitoring, sustainable development, ecological infrastructure.</p>
--	---

ISSN 2091-5187

☞ “SERVIS” ☞

Jurnal Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tahririyat
bo‘limida nashrga tayyorlandi.

06.03.2026 yilda terishga berildi. 19.03.2026 yilda bosishga ruxsat etildi. Ofset
bosma qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84_{1/8}. “Times” garniturasini. Ofset bosma usuli.
Shartli bosma tabog‘i 15,4. Hisob-nashriyot
tabog‘i 14,37. Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 0031A/26

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining
matbaa bo‘limida chop etildi.

Litsenziya № 025316.

Reestr № X-119112.

Manzil: Samarqand shahri, Shoxruh ko‘chasi, 60-uy.

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2026.